

**PUBLITSISTIK MATNLARDA TIL SIYOSATINING  
AKS ETISHI**

***Robiya Vakhobjonova***

*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

**ANNOTATSIYA.** *Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi o'zbek publitsistik matnlarida til siyosatining qanday aks etgani sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada jadid publitsistlari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Xoji Muin asarlarida til masalasi qanday ijtimoiy, siyosiy va madaniy hodisa sifatida talqin etilgani yoritiladi. Maqolada til siyosati va ijtimoiy tabaqalanish, savodxonlik, milliy ong va hokimiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'rsatilib, publitsistik diskursning jamiyatdagi til mafkurasini shakllantirishdagi faol roli asoslab beriladi. Natijada publitsistik matnlar nafaqat til siyosatini aks ettiruvchi, balki uni ijtimoiy ongda shakllantiruvchi sotsiolingvistik mexanizm ekani isbotlanadi.*

**KALIT SO'ZLAR.** *Til siyosati, publitsistik matn, jadid publitsistikasi, umumturkiy til, milliy adabiy til, til va hokimiyat, sotsiolingvistika, til mafkurasini, ijtimoiy ong, til va millat.*

**REFLECTION OF LANGUAGE POLICY IN JOURNALISTIC  
TEXTS**

***Robiya Vakhobjonova***

*Basic doctoral student of Namangan State University*

**Abstract.** *This article analyzes the reflection of language policy in Uzbek journalistic texts of the early twentieth century from a sociolinguistic perspective. The study examines how leading Jadid publicists — Mahmudkhoja Behbudi, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Khoji Muin — interpreted language as a*

*social, political, and cultural phenomenon. Through journalistic discourse, the status of the Uzbek language as a national literary language, the role of the Russian language as the dominant administrative and political language, and attitudes toward the idea of a common Turkic language are explored. The article reveals the close relationship between language policy and social stratification, literacy, national identity, and power. It is argued that journalistic texts function not only as reflections of language policy but also as active sociolinguistic mechanisms shaping public consciousness and linguistic ideology in society.*

**Keywords.** *Language policy, journalistic texts, Jadid journalism, Uzbek language, Russian language, common Turkic language, national literary language, language and power, sociolinguistics, linguistic ideology, social consciousness.*

Publitsistik matnlar til siyosatini o'zida aks ettiruvchi muhim manba hisoblanib, jamiyat va til bilan bog'liq masalalarni yaqqol namoyon etadi. Til siyosati – hukumat yoki boshqa biror tashkilotning tillardan foydalanish masalasiga doir umumiy qarashidir. U ko'pincha ushbu tashkilotning (yoki hech bo'lmaganda tashkilot Ichida hokimiyatga ega bo'lgan shaxslarning) tilga oid mafkuralarini aks ettiradi<sup>1</sup>. Bu haqida A.Hojiyev quyidagilarni bayon qiladi: —Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida vaqtli matbuotning roli ham juda muhimdir. Xuddi shu vaqtli matbuotda, ayniqsa, gazetada, adabiy tilning barcha stillari o'z aksini topadi. Shu bilan birga, ijtimoiy aloqaning bu formasi kundalik hayotda muhimligi, operativligi va ommaviyligi bilan ham xarakterlanadi. Shu jihatdan, adabiy tilning eng muhim laboratoriyasi degan iborani vaqtli matbuotga nisbatan aytish juda ham o'rinli bo'ladi<sup>2</sup>. Demak, jamiyatdagi o'zgarishlar eng birinchi navbatda publitsistikada o'z aksini topadi. Shu jumladan, publitsistik matnlar (maqolalar) eng asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Til siyosati odatda huquqiy hujjatlar, qarorlar va rasmiy bayonotlar orqali

---

<sup>1</sup> Gerard Van Herk. What is sociolinguistics? . 2012, P-334

<sup>2</sup> *Қаранг:* Совет даври ўзбек адабий тилининг тараққиёти. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988, 31-6.

amalga oshiriladi. Biroq uning real ijtimoiy hayotdagi ta'siri ommaviy kommunikatsiya, xususan, publitsistik matnlar orqali shakllanadi. Shu sababli publitsistik matnlar til siyosatining ijtimoiy ongda qanday qabul qilinayotganini, qanday talqin etilayotganini va qanday baholanayotganini ko'rsatuvchi asosiy sotsiologik manba hisoblanadi.

XX asr boshlarida Turkiston hududida til masalasi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotning markaziy muammolaridan biriga aylandi. Bu davrda rasmiy til siyosati bilan bir qatorda publitsistik matnlar orqali ifodalangan muqobil til siyosati ham mavjud bo'lib, aynan shu matnlar jamiyatda tilning maqomi, nufuzi va istiqboli haqida tasavvurlarni shakllantirdi. M.Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim", "Til masalasi", "Jaholat dardlaridan"; M.Abdurashidxonovning "Xujummi? Munozara?", Xoji Muinning "Vaqtsiz mubohasa (Til birlashtirish to'g'risida)", "Til masalasi" nomli ikkita maqolalari, "Adabsizlik sababi va uning chorasi" nomli til siyosatiga oid publitsistik maqolalar ana shu jarayonning yorqin namunasi.

"Vaqtsiz musohaba" maqolasida muallif umumturkiy adabiy til yaratish g'oyasiga tanqidiy munosabat bildirar ekan, o'zbek tilining alohida milliy adabiy til sifatidagi huquqini himoya qiladi. Jumladan, ...*Albatta, bu ishga til masalasi zo'r ro'llar o'ynaydur. Modomiki, bir xalq ichida maorif tarqatish xalqning o'z ona tili bilan bo'ladi, biz ham xalqimizni oqartish uchun o'zbek tiliga ahamiyat bersak lozimdur. Ya'ni o'zbekcha tilni o'zbeklar anglarliq bir holg'a qo'shishimiz kerakdir. Bu ish esa tabiiy til birlashtirishga xilof bir hol bo'lib qoladi. Shuning uchun umumturklar uchun mushtarak adabiy bir til vujudga chiqarmoq masalasini qo'zg'atish hanuz vaqtsiz, ham foydasiz bir ishdur*"<sup>3</sup>. Bu matnda til xalq, millat va madaniyat bilan uzviy bog'lanib, o'zbek tili milliy mentalitetining asosiy belgisi sifatida talqin etiladi. Muallif tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki millatning mavjudligi va taraqqiyotining sharti sifatida ko'rsatadi. Shu tariqa publitsistik diskurs orqali o'zbek tilining ijtimoiy nufuzi oshiriladi va u milliy til siyosatining markaziga qo'yiladi. Masalan, til siyosati nuqtayi nazaridan "*ma'rifat tarqatish xalqning o'z ona tili bilan bo'ladi*", "*xalqni o'qitish uchun o'zbek tiliga ahamiyat*

<sup>3</sup> X.Muin. "Vaqtsiz mubohasa", Tanlangan asarlar, 86-bet.

*berish kerak*” jumalari vositasida o‘zbek tilining ijtimoiy nufuzini oshirishga qaratilgan muqobil til siyosatini ilgari surmoqda. “*O‘zbekcha tilni o‘zbeklar anglarli bir holga qo‘shishimiz kerak*”. Bu jumla tilni millatning ichki birligi bilan bog‘laydi. Muallif tilni faqat aloqa vositasi emas, balki milliy birdamlik asosi sifatida ko‘radi. “*Umumturklar uchun mushtarak adabiy bir til vujudga chiqarmoq masalasini qo‘zg‘atish hanuz vaqtsiz*” jumlasini orqali muallif tilni majburan birlashtirishga qarshi chiqqani yaqqol namoyon bo‘lgan. Shundan kelib chiqqan holda muallif ijtimoiy maqomi matndagi “*biz*”, “*xalqimiz*”, “*o‘zbeklar*” leksemalari orqali shuni ko‘rsatadiki, muallif o‘zini ziyoli emas, balki millat vakili sifatida qo‘yadi. U o‘zbek xalq nomidan gapiradi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, muallif rus tili yoki umumturk tili tarafdori emas, balki o‘zbek tilining milliy adabiy til sifatida mustahkamlanishi tarafdoridir.

Mazkur maqolada umumturkiy til g‘oyasi esa ijtimoiy hayotdan uzilgan, sun’iy va real ehtiyojlarga mos kelmaydigan loyiha sifatida talqin etiladi. “*Chunki dunyodagi 70 million turk uchun mushtarak adabiy bir tilni vujudga chiqarish, menimcha, turk shevalaridan birini asos tutub o‘rta bir holg‘a qo‘yish bilan mumkin bo‘ladurkim, bu esa avom tili bo‘lmay, yolg‘uz xavos tili bo‘lib qolur. Chunki o‘rta turkcha shevasida yozg‘on bir kitobni bir oz ilmlilik ziyoli sinf o‘qub anglay olsa-da, lekin xat-savodlik avom sinfi tegishlik darajada o‘quya olmaydur. Shuning uchun til birlashtirish maqsadi yana hosil bo‘lmay qoladur*”<sup>4</sup> parchasi jadid ziyolilarining bir qismi tomonidan olib borilgan muqobil til siyosatini ifodalaydi. Keltirilgan parcha umumturkiy adabiy til yaratish g‘oyasiga nisbatan bildirilgan tanqid orqali XX asr boshidagi til siyosatining muhim jihatlarini ochib beradi. Muallif tilni faqat lingvistik birlik emas, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. Birinchidan, parcha til siyosati bilan ijtimoiy tabaqalanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. “*Avom tili*” va “*xavos tili*” qarama-qarshiligi tilning jamiyatda teng taqsimlanmaganligini anglatadi. Muallif umumturkiy adabiy til loyihasi amalda ziyolilar va savodli qatlam uchun mo‘ljallangan tilga aylanib, oddiy xalqning undan chetda qolishiga olib kelishini

---

<sup>4</sup> Yuqoridagi manba

ta'kidlaydi. Bu holat sotsiolingvistik nuqtai nazardan til asosida yuzaga keladigan ijtimoiy tengsizlikning yaqqol ifodasi hisoblanadi. Ikkinchidan, muallif til va savodxonlik o'rtasidagi munosabatni ochib beradi. Umumturkiy til asosida yozilgan matnlarni "ilmiy qatlam" tushuna olishi, biroq "avom qatlam" uchun bu til qiyin bo'lishi ta'lim va ma'rifatning xalq tiliga tayanishi zarurligini ko'rsatadi. Ushbu parchadagi muallifning ijtimoiy maqomi jamiyatni "ilmiy sinf" va "avom sinfi"ga ajratib tahlil qilgan holda, xalq manfaatini himoya qiluvchi ziyoli sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, matnda o'zbek tili xalqning savodxonligi, madaniy rivoji va ijtimoiy tengligi bilan bog'langan holda himoya qilinadi. Unga ko'ra, turkiy xalqlarning yaqinligi inkor etilmaydi, biroq har bir xalqning o'z adabiy tili va madaniy tajribasi saqlanishi zarur deb qaraladi.

Hoji Muinning "Til masalasi" maqolasida esa til siyosati boshqa jihatdan yoritiladi. Bu matnda rus tilining hukumat, idoralar, tarjimonlik va mirzolik tizimidagi ustun mavqei ochiq tasvirlanadi. Turkiston hududida rasmiy ish yuritish, hujjatlar, aloqa va tarjima jarayonlarida rus tilining markaziy o'rinni egallashi til siyosatining real ijtimoiy natijasi sifatida ko'rsatiladi. Bunda turkiy tillar, jumladan o'zbek tili, ikkilamchi mavqega tushib qolgan til sifatida tasvirlanadi. Chunonchi, *"Eski hukumat zamoninda biz Turkistonlilar hukumatning rasmiy idora va maktablari nari tursin, o'z maktablarimizda ham ona tilimizda ilm va fan o'qimoqqa komili ixtiyorli emas edik. Chunki ul mustabid hukumatning chin muddaosi bizlarni va ham g'ayri ruslarni ruslashturmoq bo'lg'onlig'i sababli bizlarni har jihatdan qisarg'a, ezarg'a tirishib tura edi"*<sup>5</sup>. Mazkur publitsistik matn til siyosatining qanday qilib ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltirishini ochib beradi. Rus tilini bilgan shaxslar jamiyatda yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lib, tarjimonlar va mirzolar orqali hokimiyat bilan bevosita aloqa o'rnatish imkoniga ega bo'lgan.

XX asr boshlaridagi til siyosati va til vaziyati, tilni rejalashtirish masalalari, ayniqsa, "jadidlar otasi" deya nom qozongan Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur "Ikki emas, to'rt til lozim" hamda "Til masalasi" nomli maqolalarida to'laqonli aks

---

<sup>5</sup> X.Muin. "Til masalasi" Tanlangan asarlar, 54-bet.

etgan. Jumladan, *“Barcha madrasalarda shar’iy va diniy kitoblar arabiy ta’lim berilsa ham, mudarrislarni taqriru tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya’ni dars kitobi — arabiy, muallim — turkiy, taqriri tarjimini forsiyligi xila ajibdur. Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydur”*<sup>6</sup>. Muallif arabiy, forsiy turkiy tillar azaldan mavjud ekanligini aytib, davr taqozosi bilan rus tilini ham bilishga targ’ib etadi. Chunonchi, *“Bizga lozimki, o’z naf’imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o’qiyluk. Davlat mansablariga kirayluk. Vatanimizga va o’z dinimizga xidmat etayluk. Musulmon bo’lib turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat, ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatg’a xidmat ilmsiz bo’lmaydur. Masalan, bugungi “podshohlik дума”g’a o’z din va millatimiz naf’ig’a so’zlamog bizlar uchun mumkin bo’lur. Anda borib naf’i bir o’n sana o’qumog kerak, zamondan, qonundan xabardor bo’lmoq kerakdur”*<sup>7</sup>.

Mazkur parcha XX asr boshidagi jadid publitsistikasiga xos bo’lgan til siyosati konsepsiyasini ifodalaydi. Unda til jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog’langan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Matnda muallif *“ruscha bilayluk”, “hukumat maktablarida o’qiyluk”, “davlat mansablariga kirayluk”* kabi chaqiriqlar orqali rus tilining siyosiy va huquqiy sohadagi muhim mavqeini tan oladi. Bu yondashuv sotsiolingvistikada ko’p tillilik sifatida baholanadi: o’zbek tili – milliy tili, rus tili – davlat va siyosiy tizimga kirish vositasi sanaladi. V.I. Belikov va L.P. Krysin ta’kidlaganidek, **“til siyosati tilning jamiyatdagi maqomini belgilaydi”**. Shundan kelib chiqqan holda, matnda rus tilini bilish jamiyatda faol ishtirok etishning sharti sifatida ko’rsatilmoqda. Muallif rus tilini o’rganishni *“vatanimizga va dinimizga xizmat”* bilan bog’laydi. Bu orqali hukmron til milliy manfaatlarga zid emas, balki ularni himoya qilishning zamonaviy vositasi sifatida qayta talqin qilinadi. Davr nuqtai nazaridan ham M.Behbudiyning o’z tilidan tashqari rus tilini ham o’rganish davr talabi ekanligini matnda aks ettirgan. Vaholanki, bu davrning til siyosati ham faqatgina hukmron til(rus tili)ni targ’ib qilar, davlatning deyarli barcha sohalarida

---

<sup>6</sup> M.Behbudiy. “Ikki emas, to’rt til lozim”. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Ma’naviyat” -2006, 152-bet.

<sup>7</sup> M.Behbudiy. “Ikki emas, to’rt til lozim”. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Ma’naviyat” -2006, 153-bet.

yetakchi tilga aylangan edi. Shuningdek, matnda til savodxonlik, ilm-fan, sanoat va davlat boshqaruvi bilan bog'lanadi.

Muallif “biz” olmoshining qo'llashi, *o'qiyluk, kirayluk, xidmat etayluk, taraqqiy qilayluk* buyruq-istak maylining shakllari vositasida muallif o'quvchini ijtimoiy faollikka undaydi. Shuningdek, *naf'imiz, Vatanimizga, dinimizga, millatimiz* leksemalaridagi egalik shaklidan (I shaxs ko'plik (-miz/-imiz)) foydalanib, o'zini va o'quvchini bir ijtimoiy jamoaga – musulmon o'zbek xalqiga mansub subyekt sifatida ko'rsatadi. Ijodkor oddiy kuzatuvchi emas, balki xalq manfaatini himoya qiluvchi siyosatchi, ongli jadid ziyolisi sifatida namoyon bo'ladi. Uning nutqi nasihat, chaqiriq va yo'naltiruvchi xarakterga ega bo'lib, bu publitsistik matnning asosiy belgilaridan biridir.

Shunday qilib, publitsistik matnlar til siyosatining shunchaki aks ettiruvchisi emas, balki uni ijtimoiy ongda shakllantiruvchi, muhokama qiluvchi va baholovchi faol sotsiolingvistik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. XX asr boshidagi o'zbek publitsistikasi misolida til masalasi milliylik, hokimiyat va ijtimoiy tenglik bilan uzviy bog'liq tarzda shakllantirilganini ko'rish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gerard Van Herk. What is sociolinguistics? 2012, P-334
2. Совет даври ўзбек адабий тилининг тараққиёти. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988, 31-б.
3. X.Muin. “Vaqtsiz mubohasa”, Tanlangan asarlar, Toshkent: “Ma’naviyat”, 2005, 86-bet.
4. X.Muin. “Til masalasi” Tanlangan asarlar, Toshkent: “Ma’naviyat”, 2005, 54-bet.
5. M.Behbudiy. “Ikki emas, to'rt til lozim”. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Ma’naviyat” -2006, 152-bet.